

Yarashev Jo‘rabek To‘rayevich

Buxoro davlat pedagogika instituti professori,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsa doktori (PhD)

“SHASHMAQOM”NING MUSHKULOT VA NASR QISMLARINING DIDAKTIK MAZMUNI

Annotatsiya. Mazkur maqolada milliy musiqa merosining noyob namunasi “Shashmaqom”ning Mushkulot hamda Nasr bo‘limlaridan foydalanishning pedagogik va terapevtik imkoniyatlari, ularning didaktik mazmuni o‘rganiladi. Xususan, art-terapiya usullari asosida Mushkulot va Nasr kuylarining estetik-ta’sirchan imkoniyatlarini ochib berish hamda bu asosda ta’lim jarayonini samarali tashkil etish texnologiyasi ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Estetik madaniyat, musiqiy terapiya, maqom, mushkulot, musiqa, psixologiya, pedagogika va madaniyatshunoslik, integratsiya, refleksiya, **texnologiya**.

ДИДАКТИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ РАЗДЕЛОВ МУШКУЛАТ И ПРОЗА “ШАШМАКОМ”

Аннотация. В данной статье рассматриваются педагогические и терапевтические возможности использования разделов Мушкулот и Наср “Шашмакома,” уникального образца национального музыкального наследия, и их дидактическое содержание. В частности, на основе методов арт-терапии будет разработана технология раскрытия эстетико-впечатляющих возможностей мелодий Мушкулот и Наср, а также эффективной организации образовательного процесса на этой основе.

Ключевые слова: Эстетическая культура, музыкальная терапия, маком, мушкулот, музыка, психология, педагогика и культурология, интеграция, рефлексия, технология.

DIDACTIC CONTENT OF THE MUSHKULAT AND PROSE SECTIONS OF THE “SHASHMAKOM”

Annotation. This article examines the pedagogical and therapeutic possibilities of using Mushkulot and Nasr sections of Shashmaqom, a unique example of national musical heritage, and their didactic content. In particular, based on art therapy methods, a technology for revealing the aesthetic and impressive possibilities of Mushkulot and Nasr melodies will be developed, and on this basis, an effective educational process will be organized.

Keywords: Aesthetic culture, music therapy, maqom, mushkulot, music, psychology, pedagogy and cultural studies, integration, reflection, technology.

Kirish. Maqom - xalqimiz vujudidan sizib chiqqan ohang. Shu bois, u asrlar osha yashab kelmoqda. Afsuski, keyingi yillarda bu qutlug‘ va sohir san‘at turiga e‘tibor susaygandek edi. Lekin, Prezidentimizning milliy maqom san‘atini rivojlantirish to‘g‘risidagi qarori ayni muddao bo‘ldi. Davlatimiz rahbari O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvida ta’kidlaganidek, biz xalqimizning noyob merosi bo‘lgan maqom san‘atini nafaqat yurtimizda, balki butun dunyo bo‘ylab keng targ‘ib qilish, kerak bo‘lsa, xalqaro miqyosda maqom tanlovlarini tashkil etish ustida ishlashimiz kerak, deya takidlashi va aynan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan milliy merosimizni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash, uni yoshlarga bezavol yetkazish borasidagi ezgu sa’y-harakatlar milliy maqom san‘ati rivojiga ko‘rsatilayotgan e‘tiborda

o'z ifodasini topmoqda. 2017-yil 17-noyabrda "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qaror esa san'atimiz tarixidagi muhim voqea bo'ldi. Mazkur hujjat o'zbek maqom san'atini chuqur o'rganib, o'ziga xos ijro maktablari va an'alarini yangi bosqichda ravnaq toptirish, uning "oltin fondi"ni yaratish va boyitish, xalqaro nufuzini oshirish va keng targ'ib qilishda g'oyat muhim ahamiyat kasb etdi. Milliy maqom san'at irivoji yo'lida ko'rsatilayotgan cheksiz e'tibor barcha ijodkorlarga ilhom, ijod zavqini bag'ishlamoqda.

Maqom – arabcha so'zdan olingan bo'lib, "o'rin, joy, istiqomatgoh" ma'nolarini anglatadi. Tarixiy manbaalarda aytilishicha "Maqom" atamasining kelib chiqishi Ibrohim Alayhissalomga borib taqaladi. Ul zot o'g'li Ismoil Alayhissalom bilan qurgan Baytullohning yonida qoldirgan oyoq izlariga "Maqom" nomi berilgan va "Maqomi Ibrohim" deb aytilgan. Musiqa istilohida esa, barmoq bosib, tovush hosil qilinadigan parda, kuy va ashulalar boshlanadigan parda (hozirgi tonika ma'nosida), ular harakat qiladigan pardalardan iborat tovushqatorlar (ladlar) ifodasi sifatida ta'riflanib kelingan.

Islomda musiqa fazoning bosqichli tuzilishi va uyg'unlik-tartiblilik tamoyiliga qattiq tayanadi. Fazodan musiqaga ko'chgan uyg'unlik va bosqichma-bosqichlilik cheksiz go'zallikning manbaidir. Arab faylasufi Al-Kindiy shunday degan edi: "Uyg'unlik hamma narsadan o'rin olgan, u hammadan ko'ra ohang - ovozlarda, olamning tuzilishi musiqa va insonlar qalbida yaqqolroq namoyon bo'ladi". Bu fikrni tasdiqlovchi dalillar ko'p.

"Shashmaqom" turkumi asosan Buxoro-Samarqand mahalliy uslubiga mos kelishi, undagi ayrim sho'balarning ikki tilda: o'zbekcha va tojikcha bo'lib kelishiga alohida e'tibor beriladi. "Shashmaqom" turkumini o'rgatishda talabalarning xotirasida aniq saqlanib qolishi zaruratiga alohida ahamiyatga ega. Bu borada hozirgi kun talabidan kelib chiqqan holda, dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan kengroq foydalanish mumkin. Bunda dastlab, "Shashmaqom"ning milliy musiqamiz boyligi ekanligi, unda xalqimizning avaylab-asrab sayqal berib kelgan ijro yo'llari, ohanglari, milliy melizmlari, qochirim, nolalari mavjudligiga e'tibor qaratiladi. "Shashmaqom" faqat o'zbek xalqining musiqiy merosi ekanligi bilangina emas, balki umumjahon musiqa xazinasining ham bir bo'lagi bo'lishi bilan ham qadrligi ekanligi va uning "YUNESKO" tomonidan umumjahon qadriyati sifatida tan olinganligi haqida tushuncha beriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Maqom sharq xalqlari musiqasining parda asosida va ularning o'ziga xos musiqa boyliklari negizida yaratilgan. Ma'lum maqom yoki sho'baning kuy va ashula yo'li turli xalqlarda bir-biridan tubdan farq qiladi, hatto ularning parda asoslarida ham juda katta tafovut bor. Maqomlarning tarixiy taraqqiyot yo'li va shakllanish jarayoni o'tmish yozma musiqa manbalarida yoritilmaganligi bu masalani atroflicha va aniq tasavvur etishga imkon bermaydi.


Maqomlarning nazariy va amaliy tomonlari IX-XV asrlarda yashab ijod etgan Al Kindiy, Al Forobiy, Al Xorazmiy, Al Urmaviy, Ash Sheroziy, Al Xusayniy, Al Marvaziy, Ibn Sino va Yaxyo bin Abu Mansur kabi ulug' musiqashunos olimlarning risolalarida chuqur ilmiy sharhlar bilan asoslab berilgan. XIV-XVIII asrlarda Markaziy Osiyo, Xuroson, Ozarbayjonda "o'n ikki maqom" (duvozda maqom) turkumi mavjud bo'lganligi tarixiy manbalarda o'z aksini topgan.

"O'n ikki maqom" (duvozda maqom) - XIII—XVII asrlarda O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlari kasbiy musiqa amaliyotida qo'llangan nazariy-amaliy tizim hisoblanadi. Ushbu tizimni yuzaga kelishi uchun o'sha davrda shaharsozlik gurkirab rivojlangan, iqtisodiy va ijtimoiy madaniyat yuksalgan aniq fanlar ham ravnaq topib, san'at ham yangiliklar bilan boyitilgan. "O'n ikki maqom" ilk bor Safiuddin Al –Urmaviy va Qutbiddin Sheroziyning musiqaga doir asarlarida tizim sifatida ishlab chiqilgan. U o'z ichiga 12 maqom, 6 ovoza, 24 sho'ba, 3 rang va 24 murakkab otni oladi. Bunda tizimning eng muhim qismi hisoblangan 12 maqom guruhining o'zagini 7 maqom parda uyushmalari tashkil etgan bo'lib, ular tarkibiga sifat jihatidan yaqin bo'lgan yana beshtasi qo'shilgan. Bularni yuzaga keltirish uchun esa, Safiuddin Al –Urmaviy (taxminan 1230-1294 y.) turli tovush uyushmalari – jinslarni nazariy jihatdan 2 guruhga (quyi va yuqori tabaqalarga) ajratgan edi.

Musiqa san'atining rivojiga ulkan hissa qo'shgan o'nlab olimlar qatorida Darveshali Changiy o'zining "Tuxfat-us-surur" asarida o'n ikki maqom va unga yaqin kuy va qo'shiqlar

hamda musiqaning yaratilishi haqida alohida to'xtalib o'tgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, "O'n ikki maqom"ning nomlari va tartibi aynan Darvishali Changiy tomonidan ko'rsatilganidek belgilangan. Bular 1- rasmida o'z aksini topgan.

"O'N IKKI MAQOM"



1 rasm. "O'n ikki maqom"ning nomlari va tartibi

Ar-Roziy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino kabi sharq allomalari musiqa orqali insonlarda uchraydigan ruhiy kasalliklarni davolash mumkinligini ilmiy asoslab bergan. Abu Nasr Farobiy o'zining "Musiqa haqida katta kitob" nomli ilmiy asarida musiqaning astronomiya bilan aloqasini ko'rsatishga harakat qilgan. O'sha davrda sharq musiqa durdonasi hisoblangan maqomlardan musiqa bilan davolashda ham foydalanilgan. Abu Nasr Farobiy maqomlarning inson ruhiy holatiga ta'sirini, shuningdek, bu ta'sirning kun vaqtiga qarab amal qilishini aniqlagan. Masalan, Farobiy tadqiqotiga ko'ra:

"Rost" maqomi – bemorga quvunch keltiradi. Ertalab quyosh chiqqanidan so'ng 40-50 daqiqa, kechqurun esa quyosh botishidan 40-50 daqiqa oldin ijobiy ta'sir qilgan. "Rohaviy" maqomi – insonda abadiylik tuyg'usini jonlantiradi va erta tongda tinglash ijobiy samara beradi. "Isfahon" maqomi – bemorni quvnoqlik, ishonch hissi bilan ilhomlantiradi va quyosh botganda samarali hisoblanadi. "Navo" maqomi – shirinlik, zavq hissini beradi va kechqurun juda samarali hisoblanadi. "Ushshoq" maqomi – bemorga ko'tarinki kayfiyat beradi va tushlik paytida samarali. "Xusayniy" maqomi – xotirjamlik tuyg'usini beradi va ertalab samarali hisoblanadi. "Zangula" maqomi – bemorga uyquni singdiradi va kechasi samarali. Busalik maqomi – bemorga kuch baxsh etadi, kunduz kuni samarali ta'sir ko'rsatadi.

Maqomlar alohida, aniq vaqtda ijro etilgan. Masalan:

- Rahoviy maqomini quyosh chiqishi oldidan;
- Ushshoqni quyosh chiqib bo'lgach;
- Rost maqoi choshgoh arafasida;
- Iroqni choshgoh paytida;
- Buzrukni quyosh botishi paytida;
- Busaliqni digar nomoz vaqtida;
- Zangulani quyosh botishi oldidan,
- Navoni nomozshom paytida,
- Zirafkani uyquga yotish oldidan,

- Isfaxonni tunda ijro etish kerak bo'lgan.

XV asr musiqashunosi Mavloni Najmiddin Kavkabi "Musiq haqida risola"da shunday yozadi: "Ayrim maqomlarni ijro etish uchun muvofiq keluvchi vaqtni tanlash kerak. Me'morchilik muqaddas so'z miniatyura san'ati, naqsh, kabi musiq ham Qur'oni Karim tamoyillaridan kelib chiqadi. Islomda musiq ilohiy kashfiyot sifatida talqin qilinadi va uni o'zgartirish huquqi kam odamlargagina nasib qilgan". Fazoviy tartib-qoidalar va maqomlarning musiqiy tuzilishi chetga chiqishga yo'l qo'ymaydi.

XVI asrda bitilgan "Musiq haqidagi risola"da shunday deyilgan: "Avval boshida maqomlar yettita edi, ular yetti payg'amardan meros bo'lib qolgan" deb ma'lumot keltirilgan.

Rost	• Odam alayhissalomdan;
Ushshoq	• Nuh alayhissalomdan;
Navo	• Dovud alayhissalomdan;
Hijoz	• Sulaymon alayhissalomdan;
Iroq	• Ayyub alayhissalomdan;
Husayniy	• Yoqub alayhissalomdan;
Rohaviy	• Muhammad sallollohu alayhi vasallamdan.

2- rasm. "Yetti maqom" va "Yetti payg'ambar"ning nomlari

"Rost" maqomining kelib chiqish tarixi hazrati Odam alayhissalomga nisbat berilgan bo'lib, uning mazmunida jannatdan quvilgan Odam Atoning o'z gunohiga tavbasi va shu yo'lda ko'plab to'kkan nadomat ko'z yoshi hamda chekkan nola-yu afg'onni anglashiladi.

"Ushshoq" maqomining kelib chiqish tarixi o'zgacha bo'lgan. Nuh alayhissalomning asl ismlari Yoshkar bo'lib, "Nuh" esa "yig'i" ma'nosini anglatuvchi "navha" so'zidan olingan. Bunga sabab esa, qalbi muhabbat nuri bilan ziynatlangan Nuh payg'ambar ko'p yig'lar va uning yig'isi "Ushshoq" maqomining kuyida o'z aksini topgan ekan.

"Navo" maqomining kelib chiqish tarixi maftunkor ovoz sohibi bo'lgan Dovud alayhissalomga nisbat berilgan bo'lib, Dovud payg'ambar hamd-u sano aytgan vaqtlari go'zal ovozi ta'siridan hatto yovvoyi hayvon-u qushlar ham mutaassir bo'lgan holda hushini yo'qotayozar edi.

"Hijoz" maqomi kelib chiqish tarixi hukmdorlik martabasi va yana ko'plab mulk merosiga ega bo'lgan Sulaymon alayhissalom bilan bog'liq. Sulaymon alayhissalomdan Yaratganga keltirgan shodlik shukronasining ifodasi o'laroq zuhur etgan.

"Iroq" nomli ohanglarning yuzaga kelishi esa sabr-matnatli Ayyub alayhissalomning hayoti davomida duch kelgan og'ir sinovlarning ijobiy xotimasi bilan bog'liqdir. Og'ir xastalikka mubtalo bo'lgan Ayyub payg'ambarning badanlarini qurtlar kemirar va o'n sakkiz yil otib, nihoyat sog'ayish vaqti kelgan mahal bir qurt muborak badanlaridan yerga tushib ketadi. Ayyub alayhissalom uni qo'lga olib yana qayta badaniga qo'ygan ham ediki, qurt qattiq chaqib oladi va shu onda beixtiyor yuzaga kelgan payg'ambar fig'oni "Iroq" maqomida bo'lgan ekan.

“Husayniy” maqomi Yoqub alayhissalomning sevimli zurriyodi bo‘lmish Yusuf Alayhissalomni ko‘p yillik ayriliqdan so‘ng ilk bor ko‘rgan chog‘ida “hoy-hoy” deb yig‘lab yuborgan nidolaridan zuhurlangan.

“Rohaviy” maqomi esa sevimli payg‘ambarimiz Muhammad (sollallohu alayhi vasallam)ga nozil etilgan “Qur‘oni karim” suralarini go‘zal ovoz birla qiroat qilgan paytlarida jilvalangan edi.


Natijalar. “Shashmaqom” musiqa madaniyatimiz tarixida ko‘p o‘rganilmagan soha. Uni nazariy tahlil qilish murakkab masala. Sharq musiqa nazariyasiga oid ko‘pgina manbalarda maqomlar tushunchasini, xarakterli belgilarini, ularning ba‘zi amaliy tomonlarini anglashga yordam beradigan qimmatli ma‘lumotlar bor. Bu manbalarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, maqomlarning ming yildan ortiqroq tarixi bo‘lsada, “Shashmaqom” Markaziy Osiyoda yashab kelgan maqom turkumlarning eng so‘nggi shakli, bundan taxminan ikki, ikki yarim asr ilgari shakllangan. Turli tushunchalar ifodasi bo‘lgan maqomlar musiqada “lad (parda) uyushmalari” ma‘nosida keladi. Bu tushuncha turli davrlarda yashab kelgan hamma maqom shakllarida ham o‘z mazmunini birdek saqlab keldi. Shuning uchun “Shashmaqom”ni o‘tmishda qo‘llanib kelingan “maqom” tushunchasi bilan birgalikda, uning tarixiy shakllanish jarayoni aspektida qarab chiqish o‘ta muhim” bo‘lib hisoblangan.

Atoqli maqomshimos olim, ustoz Is‘hoq Rajabov bundan qariyb 70 yil avval shunday yozgan edi: “Tom ma‘nodagi “maqom”laming ham kuy, ham lad tushunchalarining paydo bo‘lishi Sharq xalqlari musiqa madaniyati ancha taraqqiy etgan davrlarga to‘g‘ri keladi. Maqomlar insonning musiqa haqidagi tushunchalari, musiqiy-estetik qarashlari barkamol bo‘gan, kishilarning ongi va saviyasi yuksalgan bir davrda yuzaga kelgan. Maqomlar tizimining shakllanishi jahon ilm-u fanining rivojlanishi bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Sharq musiqa olimlari musiqaning tibbiyot, falsafa va matematika fanlari bilan bog‘liq ekanligini uqdirib o‘tganlar.



3-rasm. “Shashmaqom”ning tarkibiy tuzilishi

“Shashmaqom” - Markaziy Osiyo xalqlarining, xususan, o‘zbek va tojik madaniyatida muhim o‘rin tutadigan mumtoz musiqa yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu san‘at janri, o‘z nomidan ham ma‘lum bo‘lganidek, oltita asosiy maqomdan tashkil topgan. “Shashmaqom” musiqasi nafaqat milliy, balki umuminsoniy estetik tushunchalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Uning mushkulot qismi talabalarda estetik hislarni rivojlantirish, musiqaning teran ma‘nosini anglashga yordam beradi. “Shashmaqom” asosan ikki qismdan iborat bo‘lib, bular “mushkulot” va “nasr” deb yuritiladi. (4-rasmga qarang)



4-rasm. Shashmaqom qismlarining tuzilishi

Maqomlarda dastlab cholg'u kuylari, so'ngra esa aytim yo'llari ijro etilishi hikmatini Hazrat Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida keltirilgan quyidagi serma'no ibora mazmunidan ham anglash mumkin: "Ko'ngul quvvati - xushnavozdin, ruh quti – xushovozdin". Darhaqiqat, inson ko'ngli yoqimli kuydan quvvat oladi, demakki, maqomning "Mushkilot" bo'limi kuylarida ruhiy yuksalish uchun zarur bo'gan ma'naviy quvvat zahirasi mujassam. Shuning bilan birga, davomli cholg'u kuylar turkumini tinglayotgan muxlis ayni paytda "eng mukammal cholg'u" bo'gan inson ovozi (Forobiy) ham orziqib kuta boshlaydi. Shu onda taralgan hofizning yoqimli ovozi esa unga ma'naviy ko'mak o'laroq ruhining zafarli yuksalishi uchun muhim "dalda" bo'lib xizmat qiladi. Zero, "kuylovchining yoqimli ovozi ma'naviy baxtga chorlovchi omil bor. Aytim bo'limining umumiy nomida kelgan arabcha "Nasr" atamasi mazmunidagi "ko'mak", "zafar", "g'alaba" ma'nolari ham buni fahmlab olishimizga bir ishoradir" deb ta'rif keltirilgan.

"Shashmaqom"ning "Nasr" qismini ko'rib o'tamiz. Shuni aytish lozimki, maqomlarning barcha asosiy aytim (ashula, sho'ba) yo'llarida "g'alaba, zafar" g'oyasi botiniy ifodalanadi. Shu bois ham "Shashmaqom" turkumidagi har bir maqomning aytim bo'limi umumiy nom bilan "Nasr" (arabcha - koinak, zafar, g'alaba) deb yuritilishi bejiz bo'lmasa kerak. Bu o'rinda kuy mavzuyining hofiz ovozi ila o'zgacha tarovat kasb etishini va ayni paytda, "Saraxbor", "Talqin" hamda "Nasr" nomli asosiy ashula (sho'ba) yo'llarida yangi sifatlarni kashf etishining guvohi bo'lamiz. Turli xil doyra usullarida ijro etilishi nazarda tutilgan bu sho'balarni bir-biriga o'zaro mantiqiy bog'lanib kelishida esa ulaming orasida kelgan "Tarona"lar o'ziga xos "ko'priq" bo'lib xizmat qiladi. Bu turkum "Ufar" nomli qism bilan intiho topadi deb izoh keltirilgan.

Nasr Shashmaqomning vokal, ya'ni kuylash qismi hisoblanadi. Nasr qismida ashulachilar maqomlarning she'riy matnlarini kuylab, ularning mazmun-mohiyatini ochib beradilar. Bu qismda odatda sufiyona she'riy asarlar, g'azallar yoki xalqning og'zaki ijodidan olingan lirik matnlar kuylanadi. Matnlarning ma'nosi ko'pincha hayot, muhabbat, ma'naviyat va inson ruhiyati bilan bog'liq bo'ladi.

Muhokama. Shashmaqomning "Nasr" qismida ashulachi (hofiz)ning ovoz diapazoni va uslubi muhim o'rin tutadi. Hofizlar maqomning har bir qismini o'ziga xos ohangda va hissiyot bilan ijro etishga harakat qiladilar. Bu qism ko'proq tinglovchilarning qalbiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki ijro etilgan maqomlardagi so'z va musiqa uyg'unligi juda chuqur ifodalanadi.

"Shashmaqom" nafaqat musiqiy tizim, balki chuqur falsafiy tushunchalarga ham ega. Har bir maqom o'z ichida hayot, tabiat va inson ruhiyatini aks ettiruvchi ma'no hamda hissiyotlarni ifodalaydi. "Shashmaqom" musiqasi tinglovchini chuqur ichki tajriba va mulohazaga olib boradi, ruhiy uyg'unlikni ta'minlashda xizmat qiladi.

"Shashmaqom" ashula yo'lida foydalanilgan she'rlar, g'azallar asosan "ishqiy she'rlar" va she'r o'lchovi bo'g'inlari jihatidan ritm rukunlariga mos keladi. "Shashmaqom"da asosan o'zbek va tojik tilidagi she'rlardan, masalan, shoirlardan Navoiy, Mashrab, Bedil, Sa'diy, Umar Xayyom, Kamoli Xujandiy, Xofiz Sheroziy, Nozima, Sayf Nasriy, Zebuniso, Mushfiqiy, Amiriy g'azallaridan foydalanilgan.

Nasr – "Shashmaqom"ning lirika va falsafiy mazmun bilan to'yingan bo'limi bo'lib, bu yerda ko'pincha hofizlar g'azallarni kuyga solib ijro etadi. Uning asosiy xususiyati – badiiy so'z va musiqaning uyg'unligidadir.

"Shashmaqom"ning nasr bo'limida ishlatiladigan she'riy matnlar (g'azallar) ko'pincha ma'naviy-axloqiy, muhabbat, komillik, sabr-toqat kabi mavzularni o'z ichiga oladi. Musiqa bilan she'riyat uyg'unligining nafis ifodasi yosh avlodda estetik did, go'zallikni anglash qobiliyatini shakllantiradi. Nasrda ishlatiladigan matnlar o'zbek adabiyotining yirik namoyandalari – Navoiy, Jomiy, Mashrab kabi shoirlarning asarlaridan olingani bois, bu qism yoshlar ongida milliy o'zlik va ma'naviy merosga hurmatni kuchaytiradi.

"Shashmaqom"ning "Mushkulot" qismini ko'rib o'tamiz. Asriy an'anaga ko'ra, "Shashmaqom" turkumidagi har bir maqomning dastlab "Mushkilot" (arabcha-qiyinchiliklar) nomi bilan yuritiluvchi cholg'u kuylar bo'limi ijro etiladi. Bunda arab tilidan olingan Tasnif (muayyan yo'riqlar asosida tasnif etilgan ijodiy asar), Tarje (takrorlanuvchi), Gardun (falak gardishi, qismat), Muxammas (beshlik, beshlangan) va Saqil (vazmin, og'ir) kabi asosiy qismlarning nomlari ayni vaqtda "oddiydan murakkabga" tarzida tizilgan muayyan doyra usullarini ifodalaydi. Cholg'u bo'imidagi ushbu qismlarni yaxlit turkumga o'zaro bog'lashda "Tasnif" nomida kelgan boshlang'ich kuy (birinchi qism) muhim ahamiyatga ega. Shu bois dastavval turkum boshlang'ichining ichki shakllanish qonuniyatlari xususida batafsil to'xtalib o'tish zarur.

"Shashmaqom"ning mushkulot qismida maqomlar turli talaffuzlarda va har xil temp (tezlik)da ijro etilishi mumkin. Ushbu qism maqom musiqasining nazariy va texnik tomonlarini o'rgatishda ham muhim rol o'ynaydi. Bu qismda musiqachilar o'zlarining soz chalish mahoratini ko'rsatadilar va maqom ichida mavjud bo'lgan ritmik va melodik strukturalarni ko'rsatib beradilar.

"Shashmaqom"ning boshlang'ich bo'limi bo'lmish Mushkulot – murakkab uslub va ijro texnikasiga ega. Bu qism o'zining falsafiy-ruhiy ohanglari orqali tinglovchini ichki tafakkur sari undaydi.

"Shashmaqom"dagi asarlar ko'plab axloqiy, ma'naviy va estetik g'oyalarni o'zida mujassam etadi. Uning matnlari ko'pincha insoniylik, poklik, sabr-toqat, muhabbat, sadoqat, rostgo'ylik kabi qadriyatlarni targ'ib qiladi. Shu jihatdan, "Shashmaqom" yoshlar tarbiyasida, ularning ma'naviy-axloqiy kamolotida muhim o'rin tutadi. "Shashmaqom" musiqasi inson qalbida nozik his-tuyg'ularni uyg'otadi, estetik zavq beradi. Bu esa tinglovchida go'zallikni anglash, nozik did va musiqiy estetikani rivojlantirishga xizmat qiladi. "Shashmaqom" orqali yoshlar va tinglovchilar o'z xalqining tarixiy-madaniy merosi, an'analari, qadriyatlari bilan tanishadi. Bu esa ularning milliy o'zligini anglashida muhim ahamiyatga ega.

“Shashmaqom” maktablarida yosh musiqa ixlosmandlari, xonandalar va sozandalar o‘z kasbiga oid bilim va ko‘nikmalarni egallaydilar. Ularni o‘rgatish jarayonida maqom tizimi, ijrochilik madaniyati, ansambl o‘yinlari, ohanglar, ritmlar, kuy va usullar haqida bilim beriladi. “Shashmaqom” inson ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, uni tinchlantiradi, taskin beradi. Bu jihatdan u psixologik-pedagogik jihatdan ham foydalidir, stress va tushkunlikni kamaytirishga yordam beradi.

Xulosa. Shashmaqomning har bir maqomi — Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq o‘zining emotsional mazmuni va ichki ohanglari orqali tinglovchida turli holatlarni uyg‘otadi: xotirjamlik, umid, sabr, orom, poklanish, ruhiy yuksalish. Ushbu maqomlar asosida olib borilgan art-terapevtik yondashuvlar inson shaxsiyatini ruhiy jihatdan sog‘lomlashtirishda, stress va depressiyadan chiqishda samarali vosita bo‘la oladi.

Shuningdek, Shashmaqomni o‘rganish jarayoni orqali talabalarda estetik did, musiqiy tafakkur, milliy qadriyatlarga hurmat va madaniy ong rivojlanadi. Bu esa estetik madaniyatning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Shashmaqom san’atini zamonaviy ta’lim va tarbiya tizimiga integratsiya qilish, uni art-terapiya usullari bilan uyg‘unlashtirish — bugungi kunda dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibrohimov O.A “Maqomlar tarixi va nazariyasi”. Donishmand ziyosi.T.: 2023 y.
2. Rajabov I. Maqomlar, San’at., -T.: 2006 y.
3. Eshbayeva G. Musiqa, uning ommaviy bayram va tomoshalarda tutgan o‘rni va roli. Madaniyat va san’at jurnali. 1- son. Toshkent 2023.
4. Talaboyev A. Maqom san’ati. maqom san’atini o‘rganishda va uni yosh ijrochilarga o‘rgatishda etibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlar // "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - Volume 2 Issue 4 / December 2021. 150-bet
5. Rajabov I. Maqomlar. T.: San’at nashriyoti, 2006. 63- bet
6. Eshbayeva G. Musiqa, uning ommaviy bayram va tomoshalarda tutgan o‘rni va roli. Madaniyat va san’at jurnali. №1.2023 yil. B-58-59.
7. Xalilova Layloxon Odiljon qizi. O‘n ikki maqomning ilmiy tarixi va islom dini bilan bog‘liqlik jihatlari. international conference on teaching, education and new learning technologies” 2023/1.
8. Sadik Yigitbas-Musiki ile Tedavi
9. Baxtiyor Ashurov. Najmiddin Kavkabiyning ilmiy merosi. Uzbekistan: Language and Culture. 2019/3.